“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=362

2026-yil
4-son
aprel
ISSN 3093-8546



Prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi kurashda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni huquqiy tartibga solish masalalari

Muhammad Bahodirov,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
Huquqshunos
e-mail: bahodirov39@gmail.com

Аннотация. Maqolada prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslari, mavjud bo‘shliqlar va xavflar tahlil qilinadi. Sun’iy intellektni qo‘llash to‘g‘risidagi qonun, strategiya va etik me’yorlar asosida prokuratura uchun maxsus tartib, javobgarlik va ma’lumotlar himoyasiga doir takliflar ishlab chiqiladi.

Калит сўзлар. sun’iy intellekt, prokuratura, huquqiy tartibga solish, javobgarlik, raqamli texnologiyalar, ma’lumotlar himoyasi, huquqiy islohotlar.

Аннотация. В статье анализируются правовые основы использования технологий искусственного интеллекта в борьбе с коррупцией в органах прокуратуры, а также существующие пробелы и риски. На основе закона о применении искусственного интеллекта, стратегии и этических норм разрабатываются предложения по созданию специальных процедур для прокуратуры, регулированию ответственности и защите данных.

Ключевые слова. искусственный интеллект, прокуратура, правовое регулирование, ответственность, цифровые технологии, защита данных, правовые реформы.

Annotation. The article analyzes the legal foundations of using artificial intelligence technologies in combating corruption within prosecution authorities, as well as existing gaps and risks. Based on the law on artificial intelligence, relevant strategies, and ethical standards, proposals are developed for establishing special procedures for prosecution bodies, liability regulation, and data protection.

Keywords. artificial intelligence, prosecution, legal regulation, liability, digital technologies, data protection, legal reforms.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt (SI) tizimlari davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. SI yordamida jinoyatlarni tahlil qilish, korrupsiya xavfini aniqlash, sud amaliyotini optimallashtirish va prokuror nazoratini kuchaytirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Biroq bu jarayon yangi huquqiy chaqiriqlarni ham yuzaga keltirmoqda - xususan, ma’lumotlar maxfiyligi, javobgarlik chegaralari, vakolatlarning chegaralanishi va sun’iy intellekt qarorlarining huquqiy kuchi kabi masalalar alohida tartibga solishni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “sun’iy intellektni rivojlantirishda huquqiy, axloqiy va tashkiliy tamoyillarni uyg‘unlashtirish zarur”. Shu sababli prokuratura tizimida, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida SI texnologiyalarini joriy etishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Hozirgi kunda sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi to‘laqonli tartibga solinmagan bo‘lib, bu nafaqat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi uchun, balki butun jahon qonunchiligi uchun yangi hamda dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.

Ma’lumki, prokuratura organlari turli davlatlarda huquqiy tizim va boshqaruv shakliga qarab farq qilishi mumkin. Shunga qaramay, barcha davlatlar prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan umumiy vazifalar mavjud bo‘lib, ularga qonun ustuvorligini ta’minlash, sudda davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlash, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish kabilar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prokuratura organlarining huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining 29.08.2001-yildagi “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunida O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 03.01.2017-yildagi O‘RQ-419-sonli qonunida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari qatorida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi ham sanab o‘tilgan bo‘lib, ushbu qonunda prokuratura organlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi, korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni,

surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishi, korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshirishi, korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil qilishni amalga oshirishi va boshqalar belgilangan.

Tahlillarga ko‘ra, 2024-yilda Respublika bo‘yicha sudlar tomonidan jami 4 649 ta jinoyat ishi doirasida 7 354 nafar shaxs korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ularning 1 525 nafari yoki 20 foiziga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan. Jinoyatga qo‘l urganlarning asosiy qismi Andijon (882 nafar), Namangan (877), Qashqadaryo (695) hamda Samarqand viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida davlat manfaatlariga jami 2 trln. 812 mlrd. so‘m miqdorida zarar yetkazilganligi aniqlangan. Shundan, davlat manfaatlariga yetkazilgan zararning yuqori ulushi Andijon (680 mlrd.), Toshkent (332 mlrd.), Namangan (308 mlrd.) va Sirdaryo viloyatlariga (289 mlrd.) to‘g‘ri kelgan.

Eng ko‘p sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish (JK 167-m) 4 189 ta, firibgarlik (JK 168-m) 1 191 ta, pora olish (JK 210-m) 187 ta, pora berish (JK 211-m) 1 086 ta, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish (JK 205-m) 188 ta hamda mansab soxtakorligi (JK 209-m) 106 ta holatda aniqlangan.

Korrupsiyaga oid jinoyat uchun sudlangan shaxslarning sohalar kesimida tahlil qilganda, 654 nafari maktabgacha va maktab ta’limi, 342 nafari sog‘liqni saqlash, 271 nafari tijorat banklari, 202 nafari bandlik, 111 nafari elektr tarmoqlari, 106 nafari mahalliy hokimliklar, 90 nafari oliy ta’lim, 83 nafari gaz ta’minoti, 76 nafari suv ta’minoti, 68 nafari kadastr, 39 nafari nodavlat notijorat tashkilotlar, 36 nafari qishloq xo‘jaligi, 26 nafari transport, 244 nafari xo‘jalik yurituvchi subyektlar xodimlariga to‘g‘ri kelishi ma’lum bo‘lgan.

Korrupsiyaga oid jinoyatlar soni ortib borayotganligining sabablaridan biri uni fosh etish bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar faolligining ortishi bilan bir qatorda, vazirlik va idoralardagi ichki nazorat tizimlarining samarasiz faoliyati bilan bog‘liqdir.

Xususan, 05.03.2025-yilda Sh.M. Mirziyoyev ishtirokida o‘tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig‘ilishida davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yetarli darajada emasligi tanqid qilinib, 117 ta davlat organi va tashkilotlari ichki nazorat tuzilmasi rahbarlari lavozimidan ozod etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilikning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat faoliyatini tashkil etishda sog‘liqni saqlash, oliy ta’lim, qurilish, energetika, davlat xaridlari va bank sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha belgilangan chora - tadbirlarning ijrosi ta’minlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Xususan, 2024-yil davomida oliy ta’lim sohasida aniqlangan qonunbuzilishi holatlarini bartaraf etish bo‘yicha tegishli idoralarga 251 ta taqdimnoma kiritilgan, 560 nafar shaxs intizomiy va ma’muriy javobgarlikka tortilgan, 67 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan. Yoki davlat xaridlarining qonuniyligi yuzasidan o‘tkazilgan 359 ta tekshirish bo‘yicha 2 trln. 736 mlrd. so‘mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan.

Tahlillarga ko‘ra, aniqlangan qonunbuzilishi holatlarining asosiy qismini davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka zid ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish (298 mlrd.), qimmat narxda qabul qilish (152 mlrd.), tanlov va tender o‘tkazish talablarini buzish (145 mlrd.), xaridlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni portalga kiritmaslik (18.8 mlrd.), xarid turini noto‘g‘ri tanlash (9,1 mlrd.), shartnomalar va texnik topshiriqlarni ekspertizadan o‘tkazmaslik (1,4 mlrd.) hamda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yish (1,3 mlrd.) kabi holatlar tashkil etgan.

Yuqoridagi tahlillar prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi faoliyatni samarali tashkil etish uchun indikator vazifasini bajarib, sohada sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda huquqiy asosini shakllantirish masalalarida katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Prokuratura organlari faoliyatida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish korrupsiyaga qarshi kurashni yangi bosqichga olib chiqadi. Bu shunchaki ishni avtomatlashtirish emas, balki inson ko‘zi ilg‘ay olmaydigan yashirin bog‘liqliklarni qisqa fursatlarda aniqlash imkoniyatini beradi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi - sun’iy intellektni prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida qaysi o‘rinlarda qo‘llash mumkin bo‘ladi? Quyida sohalar hamda u keltiradigan natijalarni ko‘rib chiqamiz.

Mansabdor shaxslarning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni aniqlash. Bunda, davlat xizmatchisining rasmiy daromadlari hamda uning yoki yaqin qarindoshlarining nomida bo‘lgan mol-mulk bilan solishtiriladi hamda shubhali holatlarni aniqlaydi. Natijada yashirin aktivlarni va noqonuniy boyish holatlarini aniqlash tezlashadi.

Sud qarorlari va tergov hujjatlarining qiyosiy tahlili. SI tizimi bir xil turdagi jinoyat ishlari bo‘yicha chiqarilgan sud qarorlarini solishtiradi. Agar bir xil vaziyatda bir shaxsga eng og‘ir jazo, boshqasiga esa asossiz ravishda o‘ta yengil jazo berilgan bo‘lsa, tizim buni “shubhali holat” deb belgilaydi. Bu esa sud va tergov tizimidagi “kelishuv” yoki tarafgarchilik holatlarini aniqlash imkonini beradi.

Davlat xaridlarida “sun’iy raqobat”ni aniqlash. Tenderlarda qatnashayotgan turli kompaniyalarning hujjatlarini SI skaner qiladi. Agar turli nomdagi kompaniyalarning IP-manzillari bir xil bo‘lsa, hujjatlaridagi xatolar yoki matn tuzilishi o‘xshash bo‘lsa, tizim buni “shubhali kelishuv” sifatida qayd etadi. Natijada, davlat byudjetini talon-toroj qilayotgan soxta tenderlarga ma’lum darajada chek qo‘yiladi.

Kadastr va yer resurslarini monitoring qilish. Tizim xaritadagi o‘zgarishlarni avtomatik aniqlaydi: masalan, qog‘ozda “bog‘dorchilik yerlari” deb ko‘rsatilgan joyda aslida hashamatli koshona qurilgan bo‘lsa, tizim buni alohida belgilab ko‘rsatadi. Bu bilan yer resurslarini noqonuniy sotish va qurilish sohasidagi korrupsiyani masofadan turib fosh etish mumkin bo‘ladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi tahlili. SI davlat xizmatiga tayinlanayotgan shaxslarning nafaqat yaqin qarindoshlari, balki u bilan sobiq ish joylarida, o‘qishda yoki biznesda bog‘liq bo‘lgan barcha shaxslarni aniqlaydi. Agar nomzod o‘zining sobiq biznes sherigi nazorat qiladigan sohaga rahbar etib tayinlanayotgan bo‘lsa, tizim “manfaatlar to‘qnashuvi” haqida prokuraturani ogohlantiradi.

Narxlarni monitoring qilish. SI bozordagi real narxlarni doimiy kuzatib boradi. Agar davlat tashkiloti biror mahsulotni (masalan, tibbiy uskunalar yoki qurilish materiallari) bozor narxidan 15-20% qimmatroqqa sotib olayotgan bo‘lsa, tizim avtomatik ravishda ma’lumotni shakllantiradi. Bu bilan davlat mablag‘larini talon-taroj qilish holatlarining oldi olinadi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, sun’iy intellekt hamda u orqali korrupsiyaga qarshi kurashishdagi samaradorlik yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan holatlar bilan cheklanib qolmaydi.

Yuqorida sanab o‘tilganlar sun’iy intellekt texnologiyalarining ma’lum bir sohada qo‘llanilishiga misol sifatida keltirib o‘tilgan bo‘lsa-da, ularning huquqiy asoslari masalasiga alohida to‘xtalib o‘tish lozim.

Prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi kurash jarayoniga sun’iy intellekt (SI)ni jalb etish, avvalo, uning huquqiy maqomini, qo‘llash chegaralarini va javobgarlik mexanizmlarini aniq belgilashni talab qiladi. Shu bois asosiy e’tibor normativ bazani yaratish va moslashtirishga qaratilishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasining 21.01.2026-yildagi O‘RQ-1115-“Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar to‘g‘risida”gi qonuni SI texnologiyalaridan foydalanishning umumiy tamoyillari va subyektlarini belgilab berdi. Qonun SI ni “inson aqliy faoliyati natijalariga tenglashtiriladigan natijalar beruvchi texnologik yechimlar majmui” sifatida ta’riflab, undan foydalanishda qonuniylik, inson huquqlarini himoya qilish va xavfsizlikka alohida urg‘u beradi. Mazkur hujjat O‘zbekiston Respublikasining 11.12.2003-yildagi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi 560-II-qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritib, SI texnologiyalaridan foydalanishning umumiy asoslarini hamda vakolatli davlat organining vakolatlarini belgiladi.

Xususan, mazkur Qonunning 7(1)-moddasida insonning huquqi va erkinligiga aloqador bo‘lgan yuridik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilish chogida **faqat sun'iy intellektdan foydalangan holda** yaratilgan axborot resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlarining xulosalariga tayanish mumkin emasligi belgilab berildi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

14.10.2024-yildagi PQ-358-qaror bilan tasdiqlangan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” esa davlat boshqaruvi, jumladan huquqni muhofaza qilish tizimida SI yechimlarini keng joriy etishni strategik maqsad sifatida belgilaydi. Strategiyada katta hajmdagi ma’lumotlar asosida jinoyatchilik va korrupsiyani tahlil qilish, prognozlash va monitoring qilishga xizmat qiluvchi axborot tizimlarini yaratish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu prokuratura organlari uchun ham me’yoriy tayanch vazifasini bajaradi.

14.03.2026-yilda Adliya vazirligi tomonidan “sun’iy intellektga asoslangan yechimlarni yaratish, joriy qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha etika qoidalari”ning tasdiqlanishi (17.06.2026-yilda kuchga kiradi) SI sohasida huquqiyaxloqiy tartibga solishni to‘ldirdi. Mazkur qoidalarga ko‘ra, davlat sirlari va boshqa qonunchilik bilan qo‘riqlanadigan sirlarni tashkil etuvchi ma'lumotlar bilan ishlashda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sirlari to‘g‘risida”gi, “Bank siri to‘g‘risida”gi, “Tijorat siri to‘g‘risida”gi qonunlari hamda boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilinishi shart ekanligi, sun'iy intellekt texnologiya va tizimlaridan foydalanish O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to‘g‘risida”gi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi va “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunlari hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan amalga oshirilishi zarurligi belgilandi.

Shuningdek, ushbu Etika qoidalarida SI dan foydalanish quyidagi tamoyillar belgilab olindi:

qonuniylik;

shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini hamda atrof-tabiiy muhitni himoya qilishning ustuvorligi;

tushunarlilik;

mas'uliyat, javobgarlik va nazorat;

adolatlilik va kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik;

ochiqlik va shaffoflik;

ma'lumotlar himoyasi;

ishonchlilik va xavfsizlik.

Ushbu tamoyillarning korrupsiyaga qarshi kurashishda SI dan foydalanishdagi o‘rnini quyida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Jumladan:

foydalanuvchilar sun'iy intellekt texnologiya va tizimlaridan foydalanish qoidalari bilan tanishtirilishi, ulardan qanday maqsadda foydalanish mumkinligi yoki taqiqlanishi, shuningdek sun'iy intellektga asoslangan yechimlar yoki qarorlar doim to‘g‘ri bo‘lmasligi hamda ularning natijalaridan tavsiyaviy yoki ma'lumot uchun foydalanish mumkinligi haqida tushuntirilishi lozimligi;

sun'iy intellekt texnologiya va tizimlari orqali qabul qilingan barcha qarorlar inson nazorati ostida bo‘lishi hamda inson tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi, shuningdek yakuniy qaror inson tomonidan qabul qilinishi lozimligi;

sun'iy intellekt texnologiya va tizimlaridan foydalanishda sun'iy intellekt ishtirokchilari davlat sirlari va boshqa qonunchilik bilan

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qo‘riqlanadigan sirlarni, shaxsga doir ma'lumotlar va foydalanilishi cheklangan boshqa ma'lumotlar himoyasini ta'minlashi;

sun'iy intellekt texnologiya va tizimlarining barqaror va aniq ishlashi, xatolik ehtimoli minimal darajada bo‘lishi;

sun'iy intellekt texnologiya va tizimlariga kiritilgan ma'lumotlarning xavfsiz saqlanishi;

inson huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga aloqador bo‘lgan yuridik ahamiyatga ega qarorlarni, shuningdek sog‘liqni saqlash (kasalliklarni tashxislash, davolash usullarini belgilash, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish va bemorga oid ma'lumotlarni boshqarish va boshqalar) sohasidagi qarorlarni qabul qilish chog‘ida faqat sun'iy intellektdan foydalangan holda yaratilgan axborot resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlarining xulosalariga tayanmaslik.

Amaldagi hujjatlar SI bo‘yicha umumiy ramkani belgilab bergan bo‘lsada, prokuratura organlarida, ayniqsa korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatida SI dan foydalanish tartibi alohida normativ hujjat bilan batafsil reglamentlashtirilmagan. Prokuratura vakolatlarining xususiyati – jinoyat ishini qo‘zg‘atish, ayblov qo‘yish, sudga da’vo ariza yoki protest kiritish, tergovga nazorati – SI natijalarining huquqiy vaznini juda dolzarb masalaga aylantiradi.

Shu sababli, quyidagi yo‘nalishlarda maxsus huquqiy tartibga solish zarur:

SI natijalarining maqomini belgilash (tavsiyaviy analitika, tekshiruv uchun asos, lekin mustaqil dalil emas);

SI asosida shakllangan “risk indikator”lar bo‘yicha prokuror harakatlarining protsessual tartibi;

Prokuror mustaqilligi va diskretsiyasini SI algoritmlarining “avtomatik” xulosalaridan himoya qilish kafolatlari.

SI bo‘yicha Etika qoidalarida ham bunday yechimlardan asosan tavsiyaviy yoki ma’lumot manbai sifatida foydalanish kerakligi alohida qayd etilgan bo‘lib, bu yondashuv prokuratura faoliyatida normativ mustahkamlanishi lozim.

Prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida ishlatiladigan ma’lumotlarning katta qismi shaxsga doir, xizmat siri yoki tergov siri bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining 21.01.2026-yildagi O‘RQ-1115-son “Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar to‘g‘risida”gi qonuni bilan SI yordamida shaxsga doir ma’lumotlarga qonunga xilof ishlov berish alohida huquqbuzarlik sifatida e’tirof etildi va bunga nisbatan javobgarlik choralarini nazarda tutuvchi normalar joriy qilindi.

Xususan, SI texnologiyalaridan foydalangan holda shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlov berish, ularni ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish qurollarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi belgilandi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Shu kabi, quyidagilar aniq normativ asosga ega bo‘lishi kerak:

Korrupsiyaga oid tahlillarda SI ga berilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar toifalari (ochiq, cheklangan, maxfiy) va har bir toifa uchun ruxsat etilgan ishlov berish rejimi.

SI modellarini o‘qitish bosqichida shaxsni identifikatsiya qiluvchi atributlarni anonimlashtirish yoki psevdonimlashtirishning majburiy talablari.

Ma’lumotlarni qayta ishlash bo‘yicha prokuratura, SI operatori va ishlab chiquvchi o‘rtasida aniq shartnomahuquqiy rejim: ma’lumotlarga kirish doirasi, ularni uchinchi shaxslarga bermaslik, qayta ishlash maqsadining qat’iy chegaralanishi.

Huquqiy tartibga solish, odatda, quyidagi uch darajali javobgarlik modeliga tayansa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Texnik javobgarlik - SI tizimidagi metodologik yoki dasturiy nuqsonlar bo‘lsa, ishlab chiquvchining fuqarolik-huquqiy va ayrim hollarda ma’muriy javobgarligi (zararni qoplash, sertifikatlash talablariga rioya qilmaslik va boshqalar).

Tashkiliy javobgarlik - prokuratura organi sifatida buyurtmachi yoki operator, agar SI natijalarini nazoratsiz, huquqiy tartibsiz qaror qabul qilishga asos qilib olayotgan bo‘lsa, ichki idoraviy va byudjethuquqiy javobgarlik mexanizmlari.

Shaxsiy javobgarlik - prokuror SI tavsiyasini ko‘r-ko‘rona qabul qilib, mustaqil huquqiy tahlilni amalga oshirmagan bo‘lsa, prokuror intizomiy yoki boshqa belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi.

Etika me’yorlarida SI yechimlaridan tavsiyaviy va ma’lumot manbai sifatida foydalanish zarurligi, ularning inson qarorini almashtirmasligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Demak, huquqiy tartibga solish SI chiqarayotgan baholarni bevosita “ayblov” yoki “jinoyat ishi qo‘zg‘atish” uchun asos qilishni cheklashi, ularni faqat qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazish zarur bo‘lgan riskindikator sifatida e’tirof etishi kerak.

Korrupsiyaga qarshi kurashda SI dan foydalanishni huquqiy tartibga solishni quyidagi yo‘nalishlarda konkretlashtirish maqsadga muvofiq:

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunga SI texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha alohida modda yoki bob kiritish, unda:

SI funksiyalari (analitika, prognozlash, riskbaholash),

SI natijalarining maqomi (tavsiyaviy, tekshiruv uchun asos, mustaqil dalil emas),

prokuror vakolatlari va javobgarligi aniq yozilishi.

Jinoyatprotsessual kodeksga SI asosidagi tahlillarni “boshqa hujjatli ma’lumotlar” doirasida dalil izlashga yordam beruvchi manba sifatida e’tirof etuvchi norma kiritish, ularni sudda baholash tartibini belgilash.

Prokuratura organlarining SI bilan ishlashi bo‘yicha idoraviy reglamentlar qabul qilish, bu reglamentlar O‘RQ-1115, Strategiya va Etika qoidalariga muvofiqlashtirilgan bo‘lishi shart.

Korrupsiyaga oid davlat xaridlari, moliyaviy operatsiyalar, mulk reyestrlari bo‘yicha ma’lumotlar almashinuvi mexanizmlarini SI

uchun mos formatda belgilovchi hukumat qarori qabul qilish; bunda, shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha O‘RQ-1115 va “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonun talablariga qat’iy rioya etilishi nazarda tutilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda SI texnologiyalaridan foydalanish huquqiy tartibga solinmasdan samarali va xavfsiz bo‘lmaydi. Milliy qonunchilik - O‘RQ-1115, PQ-358, Etika qoidalari - umumiy asoslarni yaratdi, ammo prokuratura uchun maxsus me’yorlar, SI natijalarining huquqiy maqomi, ma’lumotlar himoyasi va javobgarlik bo‘yicha aniq normalar hali shakllanish bosqichida turibdi. Shu yo‘nalishdagi manzilli normativ ishlar prokuratura faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshirish bilan birga, shaxs huquqlari va adolat tamoyillarini ishonchli kafolatlashning zarur sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar to‘g‘risida”gi qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sirlari to‘g‘risida”gi qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Tijorat siri to‘g‘risida”gi qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to‘g‘risida”gi qonuni.
10. O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonuni.
11. O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirining "Sun'iy intellektga asoslangan yechimlarni yaratish, joriy qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha etika qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida"gi buyrug'i (Adliya vazirligidan 3787 son bilan 14.03.2026-yilda ro‘yxatdan o‘tgan).
12.aca.uz/storage/WY8ObPjgaahp6EPE7UapMNrGixt2jf-meta0JzQuNC70LvQuNC5INCc0LDRitGA0YPQt9CwIDIwMjQucGRm-.pdf